*O`zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi*
*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-iyun

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyun oylarida 134,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 71,6 mln. AQSh dollarini va import 63,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 8,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan MDH davlatlari bilan 17,8 mln.AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan -12,1 mln.AQSh dollarni tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatimizning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo`yicha o`sish kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o`tgan yilning shu davriga nisbatan 271,4 foizni, kimyo mahsuloti va plastmassa 207,0 foizni, rangli metal mahsulotlari 173,5 foizni, mashina va asbob uskunalar 33,3 xizmatlar eksporti 462,2 foizni, boshqalar 91,7 foizni  tashkil qiladi.

**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda**




Oziq-ovqat mahsulotlari importining o`tgan yilning shu davriga nisbatan 112,2 foizni, mashina va asbob uskunalar 198,8 foizni, rangli metal mahsulotlari 62,9 foizni, qora metal mahsulotlari 30,4  foizni, ish va xizmatlar importi 615,5  foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

**Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda**




**2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda**




Tashqi savdo MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston, davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 34,4 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Eron, Afg'oniston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 56.8 foizni tashkil qildi.

# Tashqi savdo

**Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda**

Eksport




Import




Eksport bo`yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston va Tojikiston davlatlari eksport aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami eksport aylanmasidagi ulushi 50,2 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 42,5 foizni tashkil qildi.

Import bo`yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston davlatlari import aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami import aylanmasidagi ulushi 18,0 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya, Eron va Litva davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 73,8 foizni tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**